



Nechta faslni bilasiz? Ular bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

1. Yil fasllari

Odamlar tabiatda hamma narsa takrorlanishini – sovuq qish tugab, bahor kelishi, undan keyin – yoz, issiq yoz esa o‘z o‘rnini salqin kuzga bo‘shatishi, keyin yana qish kelishini qadim zamonlardayoq tushunishgan.

Qadimgi odamlar sayyoramiz haqida yetarlicha bilimga ega bo‘lishmagan. Ular Yerning tekis shaklda ekanligi va usti shisha gumbaz bilan qoplanganiga ishonishgan. Ushbu gumbaz bo‘ylab Quyosh, Oy va yulduzlar harakatlanadi, deb o‘ylashgan. Shuning uchun odamlar fasllarning almashinishi va tabiat hodisalarining sodir bo‘lishini xudolarning kayfiyati o‘zgarishidan, deb o‘ylashgan.




2. Sayyoralar aylanishi, egilish o'qi

Yer sayyorasi Quyosh atrofida cho'ziqroq orbita bo'ylab aylanadi. Bunda Yerning o'qi vertikal ravishda orbitaga yo'naltirilmaydi, balki biroz burchak ostida egiladi.

Qishda mamlakatimiz joylashgan Shimoliy yarimshar Quyoshdan teskari tomonga o'giriladi. Quyosh nurlari uning yuzasiga tushmaydi, yer sovib, qish fasli keladi.

Yozga kelib, sayyora orbitaning boshqa chetiga o'tadi. Sayyora Quyoshdan uzoqroqda joylashgan bo'lsa ham, endi quyosh nurlari Shimoliy yarimsharga to'g'ridan-to'g'ri tushib, uni isitadi. Bu vaqtda Shimoliy yarimsharda yoz boshlanadi. Shimoliy yarimsharning katta qismi yozda quyosh nurlari ta'sirida bo'ladi. Shuning uchun yozda kunlar uzun bo'lib, tunlar esa qisqaradi.



1-topshiriq.

Fonar, lampa va globus yordamida tajriba o'tkazing.

3. Taqvim

Avvaliga ular kun davomiyligi, kun va tunning almashinuvi, oy va yil kabi o'Ichovlarni yangi Oy chiqqan kundan hisoblaganlar. Keyingi yangi Oy chiqishigacha bo'lgan davrni esa Oy fazalarining o'zgarishi hamda tabiat uyg'onishiga qarab o'rganganlar.

Ushbu tabiat hodisalarini kuzatib, odamlar bir oyda 28 kun, bir yilda esa 365 kun yoki 12 oy borligini aniqlashgan. Kunlar, oylar va yillarni hisoblash uchun taqvim yaratilgan.

Taqvim



**Yanvar
31**



**Fevral
28**



**Mart
31**




**Aprel
30**



**May
31**



**Iyun
30**



**Iyul
31**



**Avgust
31**



**Sentabr
30**



**Oktabr
31**



**Noyabr
30**



**Dekabr
31**




Taqvimdagi sonlar nimani anglatadi? Qaysi oyda kunlar soni o'zgarishi mumkin?

4. Kabisa yili

Turli yillardagi taqvimlarga nazar tashlasangiz, har doim ham bir yil 365 kundan iborat emasligini sezasiz. Buning sababi shuki, Yer Quyosh atrofida 365 kun va 6 soatda to'liq aylanib chiqadi.

Odatiy taqvimga ko'ra, 4 yil davomida ortiqcha 6 soatdan yig'ilgan vaqt – ($6 + 6 + 6 + 6 = 24$ soat), ya'ni to'liq bir sutka ortda qola boshlaydi. Shuning uchun har 4 yilda fevral oyiga bir kun qo'shishga qaror qilinadi. Bu butun yilga ham bir kun qo'shilishini anglatadi. Bunday yil kabisa yili deb ataladi. Kabisa yili 366 kunlik bo'lib, bu yilda fevral oyi 28 emas, 29 kun bo'ladi.

Kabisa yilini hisoblash qulay bo'lishi uchun, 4 ga qoldiqsiz bo'linadigan yillar e'tirof etilgan. Masalan, 2004 raqami 4 ga qoldiqsiz bo'linadi, demak, 2004-yil – kabisa yili.



2-topshiriq.

Taqvimiylar bilan bog'liq atamalarni yozing.



Yil taqvimini tuzing. Unda oila a'zolarining va yaqin qarindoshlaringizning tug'ilgan kunlarini belgilang.